

SPECIFIC FEATURES OF ELIMINATING DYSARTHRIA SPEECH DEFECT

Maxmudova Madinaxon Sobirxonovna

Qo'qon davlat universiteti

Maxsus pedagogika kafedrası dotsenti, PhD

ORCID 0009-0007-1749-5379

Tursunova Feruzaxon Qodirali qizi

Maxsus pedagogika (Logopediya) yo'nalishi magistranti

Abstract

The article provides information about the system of speech therapy effects carried out to eliminate dysarthria; the tasks of speech therapy work with dysarthric children, methods and techniques of correctional work. In addition, the clinical features of dysarthria, its forms and the main directions of the correctional process are analyzed, as well as effective methods and technologies for organizing speech therapy work are highlighted.

Keywords: Dysarthria, speech, articulation, phonemic hearing, lexical-grammatical, motor, speech therapy work, correction.

Introduction

DIZARTRIYA NUTQ KAMCHILIGINI BARTARAF ETISHNING O'ZIGA XOS XUSUSIYATLARI

Maxmudova Madinaxon Sobirxonovna

Maxsus pedagogika kafedrası dotsenti, PhD

Qo'qon davlat universiteti

ORCID 0009-0007-1749-5379

Tursunova Feruzaxon Qodirali qizi

Maxsus pedagogika (Logopediya) yo'nalishi magistranti

Annotatsiya

Maqolada dizartriyaning bartaraf etish bo'yicha olib boriladigan logopedik ta'sir tizimi, dizartrik bolalar bilan olib boriladigan logopedik ishlarning vazifalari, korreksion ish metodlari va usullari haqida ma'lumot berilgan. Bundan tashqari dizartriyaning klinik xususiyatlari, uning shakllari va korreksion jarayonning asosiy yo'nalishlari tahlil qilinadi, shuningdek, logopedik ishlarni tashkil etish bo'yicha samarali uslub va texnologiyalar yoritiladi.

Tayanch so'zlar: Dizartriya, nutq, artikulyatsiya, fonematik eshituv, leksik-grammatik, motorika, logopedic ish, korreksiya.

Zamonaviy logopediya fanining eng dolzarb yo'nalishlaridan biri — bu nutq apparati harakat faoliyatining nevrologik buzilishlari bilan kechuvchi patologiyalarni chuqur o'rganish va ularni kompleks korreksiya qilish masalasidir. Shunday buzilishlardan biri bo'lmish **dizartriya** — markaziy yoki periferik asab tizimi zararlanishi natijasida yuzaga keladigan va artikulyatsion, fonatsion hamda prosodik komponentlarning umumiy buzilishi bilan tavsiflanadigan og'ir nutqiy buzilish hisoblanadi. Dizartriyaning klinik-manifestatsiyasi ko'p hollarda miya faoliyatining organik nuqsonlari bilan chambarchas bog'liq bo'lib, bu uni boshqa fonetik-fonematik buzilishlardan ajratib turadi.

Mazkur nutq buzilishi nafaqat bolaning og'zaki muloqotga kirishishida, balki uning umumiy psixik rivojlanishida, intellektual faolligida va ijtimoiy moslashuvda jiddiy to'siqlar keltirib chiqaradi. Aynan shu bois dizartriyaning erta aniqlash va unga yo'naltirilgan samarali logopedik ishlarni tizimli asosda tashkil qilish masalasi katta amaliy ahamiyat kasb etadi.

Dizartriyaning bartaraf etishga qaratilgan logopedik korreksiya, odatda, ko'p bosqichli, individual yondashuvga asoslangan va tibbiy-pedagogik hamkorlikni talab qiluvchi jarayon hisoblanadi. Logopedik ishlarning samaradorligi, birinchi navbatda, artikulyatsion motorikani faollashtirish, nutq nafasini shakllantirish, fonatsion funksiyalarni tiklash hamda ritmik va intonatsion jihatdan me'yoriy nutq tuzilmasini rivojlantirishga qaratilgan metodik yondashuvlarning to'g'ri tanlanishi bilan bevosita bog'liqdir.

Dizartriyaning yaxshiroq tushunishga M.S.Margulis (1926) ning ishlari katta ta'sir ko'rsatdi, u birinchilardan dizartriyaning motor afaziyadan aniq ajratdi va uni bulbar

va Serebral shakllarga bo'ldi. Dizartriyaning Serebral shakilni yana kortikal va subkortikalga bo'ldi. Muallif bosh miyaning loakl jarohatlanishi asosida dizartriyaning Serebral shakli tasnifini kiritdi, bu esa keyinchalik nevrologik adabiyotlarda, keyin esa logopediya darsliklarida (O.V.Pravdina, 1969) o'z aksini topdi. L.B.Litvak (1959) dizartriyaning loakldiagnostik tomoniga o'z e'tiborini qaratdi. Dizartriya muallif artikulyatsiyaning buzilishi deb tushunadi, biroq buni u noaniq izoxlaydi: artikulyatsiya buzilishiga nutqning temp, ritm va intonatsiyasining turli xildagi buzilishlarini kiritadi. Grewellning fikricha, dizartriya – bu bosh miya turli qismlarining jarohatlanishi sababli nutqning buzilishi, shuning uchun u nafaqat artikulyatsiyaning buzilishi, balki nutqiy nafasning buzilishi, ovoz va prosodikaning buzilishini ham o'z ichiga oladi. Harard Hugot (1964) dizartriya tushunchasiga piramidali, ekstra piramidali, Serebral xarakterdagi umumiy motorika buzilishiga bog'liq bo'lgan artikulyatsiya buzilishlarini kiritadi. Muallif nutqiy motorikaning buzilishini anartriya deb nomlaydi.

Dizartriya bartaraf etish bo'yicha olib boriladigan logopedik ta'sir tizimi kompleks ravishda amalga oshiriladi, ya'ni artikulyatsion apparat massaji va gimnastik mashqlari, ovoz va nafas ustida ishlash, umumiy davolash, davolovchi jismoniy - tarbiya, fizioterapiya va dori - darmonlar bilan davolash ishlari.

Asosiy diqqat bolada nutkning rivojlanishi holatiga, nutqning leksik-grammatik tomoniga hamda nutqning aloqa funksiyasi xususiyatlariga qaratiladi. Maktab yoshidagi bolalarda yozma nutq holati ham xisobga olinadi.

Uzoq vaqt davomida muntazam ravishda olib borilgan mashg'ulotlar sekin-asta artikulyatsion apparat, apparat motorikasini normallashtiradi, artikulyatsion harakatlarni rivojlantiradi, artikulyatsiya a'zolarida ixtiyoriy harakatlarni bir harakatdan boshqa bir harakatga o'tish qobiliyatini shakllantiradi, hamda fonematik eshituvni to'la qonli ravishda rivojlantirishga yordam beradi.

Dizartrik bolalar bilan olib boriladigan logopedik ishlarning usullari AG. Ippalitova, O.V. Pravdina, V.V. Ippalitova, Ye.M. Mastyukova, G.V. Chirkina, I.I. Panchenko, va boshqalar tomonidan ishlab chiqilgan.

Dizartrik bolalar bilan olib boriladigan logopedik ishlarning vazifalari quyidagilardan iborat:

1 – tovushlarning to'g'ri talaffuzini o'rgatish, ya'ni artikulyatsion motorikani, nutqiy nafasni rivojlantirish va tovushni nutqqa qo'yish va mustahkamlash;

2 – fonematik idrokni rivojlantirish, tovush analiz malakasini shakllantirish;
3 – nutqning ritm, ohangdorligi va ifodaliligi tomonidagi kamchiliklarni bartaraf etish.

4 – paydo bo'lgan nutqning umumiy rivojlanmaganligini to'g'rilash.

Dizartrik bolalarda tovushlar talaffuzidagi kamchiliklarni bartaraf etish, tuzatish ishning eng asosiy vazifalaridan biridir. Tovushlar talaffuzidagi kamchiliklarining asosiy sababi nutq apparati a'zolarining harakatchanligida kuzatiladigan kamchiliklardir. Shuning uchun logoped asosiy diqqatni artikulyatsion apparat harakatchanligini rivojlantirishga qaratishi lozim.

Tovushlar talaffuzi ustida ishlash quyidagi holatni hisobga olib tashkil etiladi:

1 – dizatriya shakli, bolaning nutqini rivojlanish holati va bola yoshi-ni hisobga olish.

2 – nutq kommunikatsiyasining rivojlanishi. Tovushlar talaffuzining shakllanishi kommunikatsiyaning rivojlanishiga yo'naltirilgan bo'lishi lozim.

3 – motivatsiyaning rivojlanishi, bor bo'lgan buzilishlarini bartaraf etishga intilish, o'z-o'zini anglashni, o'ziga ishonch, o'zini boshqarish va nazorat qilish, o'z qadrini bilish hamda o'z kuchiga ishonish.

4 – differensial eshitish idroki va tovush analizi qobiliyatini ri-vojlantirish.

5 – ko'ruv-kinestetik tuyg'uni rivojlantirish yo'li bilan artikulyatsion tartib va artikulyatsion harakatni kuchaytirish.

6 – ishni bosqichma-bosqich tashkil etish. Korreksion ish bolada talaffuzi saqlanib qolgan tovushlardan boshlanadi. Ba'zan tovushlar ancha sodda motor koordinatsiyalari tamoyiliga ko'ra tanlab olinadi, ammo artikulyatsiyaon buzilishni hisobga olingan holda birinchi navbatda ilk ontogenez tovushlari ustida ish olib boriladi.

7—Eng og'ir buzilishlarda, ya'ni bola nutqi atrofdagilar uchun umuman tushunarsiz bo'lganda korreksion ish alohida ajratilgan tovushlar va bo'g'inlardan boshlanadi. Agarda bola nutqi atrofdagilar uchun nisbatan tushunarli bo'lsa va u ayrim so'zlarda nuqsonli tovushlarni to'g'ri talaffuz qila olsa, unda ish «tayanch» so'zlardan boshlanadi. Har qanday hollarda va turli nutqiy holatlarda tovushlar nutqda mustahkamlanishi zarur.

8 – Markaziy asab tizimi shikastlangan bolalarda nutqdan oldingi davrda logopedik ishlarni muntazam olib borish yo'li bilan tovushlar talaffuzidagi murakkab buzilishlarning oldini olish muhim ahamiyatga ega.

Dizarteriyada olib boradigan logopedik ishlar bosqichma-bosqich olib boriladi.

1-bosqich tayyorlov bosqichi – bu bosqichning asosiy maqsadi:

- artikulyatsion apparatni, artikulyatsion tartibni shakllantirishga tayyorlash;
- bolaning ilk yoshida – nutqiy muloqot ehtiyojini tarbiyalash;
- passiv lug’atni aniqlash va rivojlantirish
- nafas va ovozda kamchiliklarni korreksiyalash.

Bu bosqichning eng ahamiyatli vazifalari bu – sensor funksiyani, ayniqsa, eshitish idroki va tovushlar analizini rivojlantirishdir.

Korreksion ish metodlari va usullarini qo’llash nutq rivojlanishi darajasiga bog’liq. Bolada muloqot nutq vositalarining bo’lmasligi boshlang’ich ovoz reaksiyasini tezlashtiriladi va tovushlarga taqlid qilishga olib keladi, hamda unga kommunikativ ahamiyat tusini beradi.

Logopedik ishlar dori-darmonlar bilan ta’sir etish, fizioterapevtik davolash, davolov jismoniy tarbiyasi va massaj bilan qo’shib olib boriladi.

2-bosqich boshlang’ich kommunikativ talaffuz qobiliyatini shakllantirish bosqichi.

Bu bosqichning asosiy maqsadi:

- nutqiy muloqot va tovushlar analizi malakasini rivojlantirish;
- artikulyatsion apparat muskullarini bo’shashtirish;
- og’iz holatini nazorat qilish;
- artikulyatsion harakatlarni rivojlantirish;
- ovozni rivojlantirish;
- nutqiy nafasni to’g’rilash;
- artikulyatsion harakatlarni sezish va maqsadga yo’naltirilgan artikulyatsion harakatni rivojlantirish.

Keyingi mashqda logopedning ko’rsatkich barmoqlari xuddi yuqoridagidek holatda bo’ladi, faqat harakatlar yuqori lab bo’yicha yuqoriga qarab qilinadi, bunda milkar ko’rinadi, pastga qarab qilingan harakatlarda pastki milkar ochiladi.

So’ngra logopedning ko’rsatkich barmoqlari og’izning burchaklariga qo’yiladi va lablar tortiladi (iljayish). Qayta harakat yordamida lablar o’z holatiga qaytadi.

Bunday mashqlar og’izning turli holatlarda: og’iz yopiq, yarim ochiq, katta ochiq holatlarida qilinadi.

Bo'shashtiruvchi mashqlardan so'ng past tonusdagi mustahkamlovchi massajdan so'ng labning passiv faol harakatlari mashq qildiriladi. Bu massaj va mashqlar natijasida bola lablari bilan turli diametrdagi yog'och buyumlarni, konfetlarini ushlab tura olishiga erishadi, naycha orqali suv ichishni o'rganadi.

Xulosa qilish mumkinki, yuqorida qayd etilgan muskullarni umumiy bo'shashtiruvchi mashqlaridan so'ng til muskullarini mashq qilishga o'tiladi. Ularni bo'shashtirishda til pastki jag' muskullari bilan o'zaro bog'liq ekanini yoddan chiqarmaslik kerak. Shuning uchun spastik ko'tarilgan tilning og'iz bo'shlig'ida pastga harakati pastki jag'ning pastga qarab harakati bilan birga qilinsa, mashqni bajarish bola uchun oson kechadi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Жукова Н.С., Мастюкова Е.М., Филичёва Т.Б. Преодоление общего недоразвития речи у дошкольников. – М., 1990.
2. Г. В. Бабина, Л. И. Белякова, Р. Е. Идес Логопедия. Дизартрия: Учебно-методическое пособие Москва: МПГУ, 2016
3. Иваненко С.Ф. Формирование восприятия речи у детей с тяжёлыми нарушениями произношения. – М., 1994.
4. М. Аюпова Логопедия— Nashr: “Ўзбекистон файласуфлари миллий жамияти нашриёти”, 2007.
5. Madinakhan, M., & Odinakhan, R. (2023). STAGES OF UPBRINGING AND DEVELOPMENT OF SPEECH-IMPAIRED CHILDREN IN THE FAMILY. American Journal of Interdisciplinary Research and Development, 16, 33-37.
6. Maxmudova, M., & Xasanova, I. (2023). DIZARTRIYA NUTQ BUZILISHI TOVUSHNING TALAFFUZ TOMONIDAN BUZILISHI SIFATIDA. Interpretation and researches, 1.
7. Madinakhan, M., & Iroda, K. (2023). SPECIFIC FEATURES OF DYSARTHRIA SPEECH DISORDER IN CHILDREN WITH SPEECH DEFICIENCY. American Journal of Interdisciplinary Research and Development, 16, 42-45.
8. Saule, Z., & Sobirxonovna, M. M. (2023). DISRUPTION OF SPEECH, WHICH IS NOT VISIBLE IN RETARDATION OF MENTAL DEVELOPMENT. Academia Science Repository, 4, 46-50.



9. Madinakhan, M. (2023). THE THEORETICAL SIGNIFICANCE OF THE DEVELOPMENT OF THE PROFESSIONAL COMPETENCE OF THE TUTOR OF A SPECIAL EDUCATIONAL INSTITUTION. Galaxy International Interdisciplinary Research Journal, 11(11), 353-356.
10. Shukhratovich, M. K. (2023). WAYS TO OVERCOME SPEECH DEFECTS IN THE EDUCATION OF PARALYZED CHILDREN. Galaxy International Interdisciplinary Research Journal, 11(11), 348-352.
11. Xurshid, M. (2023). Maxsus yordamga muxtoj bolalar va o'smirlarni ijtimoiy reabilitatsiyasida oilaning roli. Confrencea, 12(12), 338-342.
12. Xurshid, M. (2023). Rivojlanishida nuqsoni mavjud bolalar oilalarida oilaviy munosabatlarning rivojlanishi davrlari. Confrencea, 12(12), 332-337.
13. Xurshid, M. (2023). Maxsus yordamga muxtoj bolalar oilalari bilan olib boriladigan psixoterapevtik ish. Confrencea, 12(12), 326-331.
14. Khurshid, M. (2023). Views Of Eastern Thinkers On The Education Of Children With Special Needs. JournalNX, 9(11), 210-215.